

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI
VAZIRLIGI**


**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA ISTITUTI
YERDAN FOYDALANISH VA YER KDASTRI FAKULTETI
“GEODEZIYA VA YER KADASTRI” KAFEDRASI**

YER KADASTRI VA MONITORINGI
fani

1-mavzu: DAVLAT ER KADASTRINING NAZARIY ASOSLARI

**1.4 O'zbekiston Respublikasining er fondi – er kadastrining
ob'ekti sifatida**

Тошкент 2013.



Respublikamiz er fondi er
kadastro bilan uzviy
bog'liqdir. Chunki aynan er
kadastro mamlakatimiz
hamma er maydonlarida
yagona uslubiyat asosida
o'tkaziladi

O'zbekiston Respublikasida er - davlat mulki, umummilliy boylikdir, undan oqilona foydalanish zarur. Er davlat tomonidan muxofaza qilinadi. Davlat arning asosiy egasi sifatida er fondiga egalik qilish va undan to'g'ri foydalanishni ham tashkil etishi zarur. SHunday tashkiliy tadbirlardan biri davlat er kadastrini hisoblanadi. Demak, mamlakatning yagona er fondi-er kadastrining ob'ekti hisoblanadi.

Er fondi undan foydalanishning asosiy maqsadiga qarab quyidagi toifalarga bo'linadi:



- 1) qishloq xo'jaligi erlari
- 2) aholi punktlarining erlari
- 3) sanoat, transport, aloqa, mudofaa maqsadlarida foydalanish uchun mo'ljallangan erlar;
- 4) tabiatni muhofaza qilish, sogolomlashtirish rekreatsiya maqsadlarida foydalanish uchun mo'ljallangan erlar;
- 5) tarixiy-madaniy maqsadlarda foydalanish uchun mo'ljallangan erlar;
- 6) o'rmon fondi erlari;
- 7) suv fondi erlari;
- 8) zahira erlar.

Respublika er fondini er toifalari bo'yicha taqsimlanishi

Tr	<i>Er toifalari</i>	<i>Umumiy maydoni</i>	
		<i>ming. ga.</i>	<i>%</i>
1	Qishloq xo'jalik erlari	25789,8	58,1
2	Aholi yashash erlarining maydoni	230,6	0,5
3	Sanoat transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlar uchun ajratilgan erlar	1934,2 8050,4 810,2	4,4 18,1 1,8
4	O'rmon fondi erlari	12,6	-
5	Suv fondi erlari	7582,5	17,1
6	Tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, rekriatsion		
7	Tarixiy–madaniy ahamiyatiga molik erlar		
8	Davlat zahira erlari		
	<i>Jami erlar</i>	44410,3	100,0

Qishloq xo'jaligi erlarini irrigatsiyalash va suvdan foydalanish tizimiga asoslangan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishning asosi va erlardan foydalanish jarayonida tuproq unum dorligini oshirishning shartidir.

Qishloq aholi punktlarining erlariga belgilab qo'yilgan chegaralari doirasidagi hamma erlar kiradi. Qishloq va ovul, o'zini-o'zi boshqarish organlari tessarrufidagi qishloq aholi punktlarining qishloq xo'jaligi hamda o'rmon xo'jaligi korxonalari muassasalari va tashkilotlari foydalananadigan erlar kiradi.

Sanoat erlari jumlasiga sanoat korxonalariga, jumladan undirma sanoat va energetika korxonalariga ishlab chiqarish va yordamchi binolar hamda inshoatlar qurilishiga doimiy foydalanish uchun berib qo'yilgan erlar kiradi.

Suv xo'jaligi ehtiyojlari uchun korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga belgilangan tartibda berib qo'yilgan suv xavzalari (daryolar, ko'llar, suv omborlari va h.) gidrotexnika va boshqa suv xo'jaligi inshoatlari egallab turgan erlar, shuningdek suv xavzalarining qirg'oqlari va boshqa suv ob'ektlari bo'ylab ajratib qo'yilgan zonadagi erlar suv fondi erlari jumlasiga kiradi.

O'rmon fondi erlari – o'rmon daraxtlari bilan qoplangan, shuningdek, o'rmonga qo'shilmagan yakka daraxtlar, jarliklar atrofiga ekilgan daraxtlar, qiyalik, balandlik, daryo qirg'oqlariga suv havzalari atroflariga qumliklar yonlarida, o'rmon – bog' erlari, o'rmon ko'chatzorlari, shuningdek, daraxtlari kesib olingan o'rmon erlari kiradi.